



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

PhD Asimova Feruza

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0004-5620-5969

feruzaasimova85@gmail.com

Annotatsiya. To'qimachilik sanoati, global raqobat sharoitida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samaradorligini oshirishni maqsad qiladi. Global iqtisodning rivojlanishi iste'molning sezilarli darajada oshishiga olib keldi, ammo bu o'sish aniq inqilobiy tengsizliklar bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: modifikatsiya, yangi jarayon texnologiyalari, qayta ishlash, ekologik inspeksiya.

РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

PhD Асимова Феруза

*Ташкентский государственный технический
университет имени Ислама Каримова*

Аннотация. Текстильная промышленность ставит своей целью развитие инновационной деятельности и повышение её эффективности в условиях глобальной конкуренции. Развитие мировой экономики привело к значительному увеличению потребления, однако этот рост характеризуется явными революционными неравенствами.

Ключевые слова: модификация, новые процессные технологии, переработка, экологическая инспекция.

DEVELOPMENT OF METHODS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INNOVATION ACTIVITIES IN ENTERPRISES OF THE TEXTILE INDUSTRY

PhD Asimova Feruza

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Abstract. The textile industry aims to develop innovation activities and improve their effectiveness in the context of global competition. The development of the global economy has led to a significant increase in consumption, but this growth is marked by obvious revolutionary inequalities.

Keywords: modification, new process technologies, recycling, environmental inspection.

Kirish.

Jahonda to'qimachilik sanoatini samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni ishlab chiqarishda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish (ishlab chiqish) yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. Bugun to'qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va bozor talablarini qondirish uchun to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini ratsional tashkil qilish, innovatsion to'qimachilik mahsulotlarini yaratish, ekologik barqaror, energiya tejamkor ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (ishlab chiqish) kabi yo'nalishdagi mavzulardagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida raqobatbardosh to'qimachilik sanoatini tashkil qilish, jahon bozorlarida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, qo'shimcha qiymatni shakllantirishning to'liq zanjirini yaratish kabilar yuzasidan islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ip-kalavani chuqur qayta ishlash (2026-yilga qadar ip-kalavani to'liq qayta ishlashni yo'lga qo'yish), ishlab chiqarish zanjirida mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan loyihalar ro'yxatini shakllantirish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan, milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd AQSh dollariga yetkazish" vazifalari belgilangan.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatimizda sanoat, xususan to'qimachilik sanoatining rivojlanish xususiyatlarining nazariy va uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarida o'z aksini topgan.

To'qimachilik sanoatining texnologik rivojlanish jarayonlari, innovatsiyalar va ular orqali biznes samaradorligini oshirishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Mahmudov (2020) to'qimachilik sanoatidagi zamonaviy texnologiyalarni, masalan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, robototexnika va raqamli dizaynlar kabi yangi metodlarni tahlil qiladi. Kitobda sanoatning global tendentsiyalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy foydalari va samaradorlikni oshirishda qanday asosiy yondashuvlar mavjudligi yoritilgan. Bu asar to'qimachilik korxonalariga yangi texnologiyalarni joriy qilishda amaliy yondashuvlar, ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunishga yordam beradi.

To'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish metodologiyasini taqdim etadi. Kitobda to'qimachilik sanoatining asosiy innovatsion jarayonlari, shu jumladan yangi materiallar va ishlab chiqarish usullarini joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ismoilov (2019) to'qimachilik korxonalari uchun innovatsion boshqaruvni amalga oshirishda zarur bo'lgan tizimli yondashuvlarni tavsiflaydi. Innovatsion boshqaruvning amaliy metodlari, shu jumladan resurslarni optimallashtirish, texnologik o'zgarishlar va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Bu kitob, to'qimachilik sanoatida boshqaruv tizimini takomillashtirish, zamonaviy innovatsion usullarni ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni beradi.

To'qimachilik sanoatida raqamli transformatsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Karimov (2022) yangi raqamli texnologiyalar, masalan, sanoat 4.0, IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi metodlarni sanoatdagi innovatsiyalarni boshqarishda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. Ushbu kitobda raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyasi, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot mavjud.

Zaynabova (2021) tomonidan yozilgan ushbu kitob texnologik innovatsiyalarning to'qimachilik sanoatidagi ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. Asar, ayniqsa, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yoritadi. Kitobda to'qimachilik sanoatida texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalar va resurslar ko'rsatilgan. Shuningdek, yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari ham batafsil o'rganilgan.

Isroilov (2022) to'qimachilik sanoatida resurslarni samarali boshqarishning ahamiyatini tahlil qiladi. Kitobda, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda resurslarni optimallashtirish, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va raqobatni kuchaytirish uchun zarur bo'lgan boshqaruv strategiyalari ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif texnologik yangiliklarni joriy etish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilishda resurslarni boshqarishning muhimligi haqida batafsil ma'lumot beradi.

2024-yilda sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra, dunyodagi eng katta hajmda to'qimachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi davlatlar orasida an'anaviy ravishda eng yirik to'qimachilik eksportchilari-Pokiston (19 millrd. doll), Ispaniya (20 millrd. doll), AQSH (24 millrd. doll), Italiya (34 millrd. doll), Turkiya (35 millrd. doll), Germaniya (40 millrd. doll), Hindiston (44 millrd. doll), Vetnam (43 millrd. doll), Bangladesh (46 millrd. doll), Xitoy (55 millrd. doll) davlatlari orasida o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda orasida o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda (World Bank, 2022).

Jahonda to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojning tobora ortib borishi sharoitida tabiiy va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarga ko'ra sinergetik samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2024 yilning yanvar-fevral oylarida qiymati 519,4 mln AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. Bu ko'rsatkich umumiy eksportning 14,3 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 % ga oshgan. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (37,4 %), kalava-ip (47,7 %) ulushni egallagan. Alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda jahonda to'qimachilik sanoati korxonalarini raqobatli rivojlantirishda natijador iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarni amaliyotga qo'llash va innovatsion samaradorlik dolzarb muaomolardan biri bo'lib qolmoqda (Statistika agentligi).

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy taklif, tavsiya va xulosalar innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlarining nazariy ta'minotini boyitish hamda sohaga oid ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-nazariy bazasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotlari asosida tahlil natijalari tuzilgan.) "Hilale Textiles" MChJ korxonasining tegishli yillardagi faoliyatlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlardan foydalangan holda ular bo'yicha ishlab chiqarish funksiyalari tuzilgan va samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiy tahlil, qiyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

To'qimachilik sanoatida asosiy atrof-muhit muammolari muhim rol o'ynamoqda. To'qimachilik sanoatining atrof-muhitga bo'lgan ta'siri, ximik moddalarning ko'p miqdorda chiqarilishi, suv va energiya iste'moli, chiqindilar va ifloslanish bilan namoyon bo'ladi. To'qimachilik sanoatining har bir jarayoni, Tabiiy tolalarni yetishtirishda foydalaniladigan dori vositalaridan tortib, sintetik tolalarni ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilar va oxirgi

to'qimachilik mahsulotini olish uchun sarflanadigan katta miqdordagi kimyoviy moddalar, suv va energiya iste'moli kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun barqarorlikka va toza ishlab chiqarish usullariga qaratilgan yondashuvni rivojlantirish zarur. Toza ishlab chiqarish, chiqindilar va ifloslanishni kamaytirish uchun jarayonlarni optimallashtirishni o'z ichiga oladi, shu tariqa ishlab chiqarishni barqarorlashtirishga olib keladi. Barqarorlikni ishlab chiqarish tizimiga integratsiya qilish orqali, sanoatlar o'z muhitga ta'sirini kamaytirishlari mumkin. Bir vaqtda iste'molchilar talablarini ham qondirishlari mumkin. Rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi munozarani davom ettirish, odamlar va yer yuzi uchun uzoq muddatli kelajakni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'riladi:

Administrativ profilaktika choralari: Bu toza ishlab chiqarishning eng oddiy va samarali usullaridan biridir. U katta xarajatlarni talab qilmaydi, chunki investitsiyalarni kiritishni talab qilmaydi va imkoniyatlar aniqlangandan so'ng darhol amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun suv, energiya va boshqa resurslarni yo'qotishni oldini olish, kimyoviy moddalarni optimallashtirish va jihozlarni utilizatsiya qilish kiradi. Bundan tashqari, ushbu bo'limda xodimlarni boshqarish va o'qitishga ham e'tibor qaratish mumkin.

Jarayonni eng yaxshi nazorat qilish: Ushbu choralarda harorat, vaqt, bosim, pH darajasi va jarayon tezligini muntazam ravishda nazorat qilish zarur. Bu tekshiruvlar iste'mol materiallari, ishlab chiqarish jarayonlari va chiqindilar nuqtai nazaridan optimal sharoitlarni ta'minlashga yordam beradi, shuningdek, zarurat tug'ilganda tegishli o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarayon administrativ choralalar bilan taqqoslaganda murakkabroq monitoring va boshqaruvni talab etadi.

Materiallarni almashtirish ishlab chiqarishni sifat va xarajatlarni yo'qotmasdan oshirish maqsadida yuqori sifatli materiallardan foydalanishni anglatadi. Bu yondashuv samaradorlikni oshirish va resurslarni yanada samarali ishlatish imkonini beradi. Shuningdek, materiallarni almashtirish mavjud materiallarni ekologik jihatdan toza materiallar bilan almashtirishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, xavfli kimyoviy moddalarni o'z ichiga olgan bo'yoqni ekologik toza alternativaga almashtirish tozalash jarayonlari va ularga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi yoki yo'qotadi.

Jihozlarni modifikatsiya qilish: Bu jarayon chiqindilarni kamaytirish va samarali ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash maqsadida mavjud jihozlarni yaxshilashni anglatadi. Misollarga dvigatel aylanishini o'rnatish, tanklar hajmini optimallashtirish, issiq quvurlarni izolyatsiya qilish va boshqa tadbirlar kiradi.

Yangi jarayon texnologiyalari: Ushbu yondashuv zamonaviy va samarali texnologiyalarni joriy etishni ko'zda tutadi, bu esa boshqa usullarga nisbatan yuqori boshlang'ich investitsiyalarni talab qiladi. Biroq, sifat va tejamkorlikni oshirish natijasida bu investitsiyalar tezda o'zini oqlashi mumkin. Ushbu qo'llanma yordamida kompaniyalar zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga osonlik bilan o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Atrof-muhitni ta'sirini baholash (ATB): bu jarayon, qaror qabul qilishdan oldin atrof-muhitga ta'sirni hisobga olishni nazarda tutadi. ATB rejalashtirilayotgan loyihalarning atrof-muhitga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash, salbiy ta'sirlarni oldini olish va ularni kamaytirish uchun zarur choralarni belgilash, shuningdek, loyihalarni amalga oshirish jarayonini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Ekologik boshqaruv tizimi (EBT): Bu tizim atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishi yoki uning potentsialini oshirishi mumkin bo'lgan o'zaro bog'liq faoliyatlarni boshqarishga qaratilgan. EBTning asosiy bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ekologik siyosatni belgilash, rejalashtirish, amalga oshirish va ekspluatatsiya, nazorat va tuzatish jarayonlari, shuningdek boshqaruv inspeksiyasini o'tkazish. Ushbu tizim kompaniyalarga atrof-muhitni hisobga olish, kerakli choralarni aniqlash va ularni qanday amalga oshirishni rejalashtirish imkonini beradi.

Hayot siklini baholash (HTB): Bu "hayot siklining tahlili", "hayot sikli yondashuvi" yoki "ekologik balans" deb ataladigan jarayon, mahsulot tizimining barcha hayot sikli bosqichlarida

atrof-muhitga ta'sirini baholashga qaratilgan. Boshqacha aytganda, bu barqaror rivojlanish uchun atrof-muhitni boshqarishda yordam beradigan usul va metodlar to'plamidir. HTB mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarilishidan tortib, utilizatsiyagacha bo'lgan jarayonlarda atrof-muhitga salbiy ta'sirni tizimli ravishda tahlil qilish va bartaraf etishga yordam beradi.

Ekologik texnologiyalarni baholash: Turli korxonalar va loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash, bir qator texnologiyalardan foydalanishdan voz kechish va ushbu texnologiyalarning inson salomatligi va ekologik qiymatlar uchun xavf-xatarlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunda muayyan texnologiyaning inson salomatligiga va tabiiy tizimlar va resurslarga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kimyoviy baholash: Ushbu kontekstda ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan kimyoviy moddalarining toksik ta'siri va ularning miqdori tahlil qilinadi. Shuningdek, xavf va ta'sirni baholashga oid metodologiyalar ham bu jarayonga kiritiladi.

Chiqindilarni nazorat qilish: Jarayonlarning kirish-chiqish inventarizatsiyasi, chiqindilar manbasi, ularning sifati va miqdori, amaldagi jarayonning samaradorligi va zaif tomonlari aniqlanadi. Bu jarayonda toza ishlab chiqarish uchun chiqindilarni minimallashtirish maqsadlari ko'zda tutiladi. Shunday qilib, jarayon samaradorligini oshirish uchun yo'qotishlar kamaytiriladi.

Ekologik inspeksiya: Bu toza ishlab chiqarish jarayonida eng ko'p ishlatiladigan va muhim vositalardan biridir. Uning maqsadi ishlab chiqarish jarayonidan chiqindilar miqdori va xususiyatini aniqlash va ifloslanishni kamaytirish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini belgilashdir. Bu juda samarali vosita bo'lib, chiqindilar, energiya va xavflarni monitoring qilish kabi turli maqsadlar uchun foydalaniladi.

Ekologik belgilash yoki ekologik markirovka: ekologik belgilash mahsulot yoki xizmatning ma'lum bir toifada atrof-muhitga sezgiriligini ko'rsatadi. Bu usul butun dunyoda qo'llaniladi va ekologik samaradorlikni sertifikatlashning ixtiyoriy usulidir.

Sanoat simbiozi (SS): Sanoat simbiozi prinsipining mohiyati juda sodda. Ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha resurslar isrof qilinmasdan, boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi jarayonlarda foydalanish uchun qayta ishlanadi. Bu yondashuv o'zaro manfaatlar yaratadi va kompaniyalar o'rtasida simbiotik aloqalarni rivojlantiradi." Sanoat simbiozi orqali kompaniyalar energiya, materiallar, suv, yon mahsulotlar yoki umumiy logistika, ixtisoslashuv va boshqalarni barter qilish orqali raqobat ustunligini olishga harakat qiladilar. Shunday qilib, ular samaradorlikni oshirishi, pulni tejashi, atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishi, bilimlarni baham ko'rish va ekologik yangiliklarni rag'batlantirishi mumkin.

Uglerod izi: Uglerod izi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammo bo'lib, muassasa, inson yoki faoliyat tomonidan chiqarilgan gazlarning umumiy miqdorini ifodalaydi. Uglerod izini ta'riflashda, bu to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita faoliyat yoki mahsulot hayot tsikllarining turli bosqichlarida chiqarilgan uglerod dioksidi miqdorini o'lchashni anglatadi. CO₂ ekvivalentlari yoki global isish potentsiali (GIP) bu boshqa gazlarning atmosferada CO₂ bilan taqqoslaganda bir xil issiq tutish qobiliyatiga ega bo'lgan miqdorini ko'rsatadi. Ushbu birlik orqali barcha issiqxona gazlarining ta'sirini umumiy bir birlikda yig'ish va ifodalash mumkin.

Xavfni baholash: Bu muayyan hodisaning inson salomatligi va atrof-muhitga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xavflarini aniqlashga yordam beradi va ushbu xavflarni kamaytirish uchun ko'rilishi kerak bo'lgan ehtiyot choralarini belgilashga qaratilgan usuldur.

To'qimachilik sanoati korxonasi rivojlantirish strategiyasiga tayangan holda, uning birinchi bosqichi korxonaning tashqi muxit va ichki muxitdagi axvolini tahlil qilishdan iboratdir. Innovatsion faoliyat jarayonida strategik rivojlanish asoslari sifatida qabul qilingan "Takro Osiyo" MChJ va "Hilale Textiles" MChJ sanoat korxonalari ushbu tadqiqot amaliyotini o'tkazish uchun muhim paydevor bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion ishlab chiqarish jarayoni — bu xom-ashyo (xi), kapital (K) va mehnat (L) ni belgilangan texnologiya asosida birlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonga kirishlar sifatida

xom-ashyo va materiallar (x_i), kapital (K) va mehnat (L) ishlatiladi, natijada tayyor mahsulotlar hosil bo'ladi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$y = f(x_1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda $x_1, x_2, \dots, x_n$ - Sarflanayotgan yoki foydalanilayotgan resurslarning qiymatlari;
 y — ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi.

$$y = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

Ishlab chiqarish funksiyasining analitik shakli va resurslarni tanlash jarayoni ishlab chiqarish funksiyasining spetsifikatsiyalashi deb ataladi.

Innovatsiyalarni tatbiq etish orqali ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida normativ ko'rsatkichlar bilan solishtirganda texnologik jarayonlardagi o'zgarish darajasi 1,2 barobarga oshdi.

$$Q = \frac{A_i}{i} / \frac{A_k}{k - i}$$

Bu yerda: Q -me'yor darajasini hisoblash

i - yetakchilar orasida k yetkazib beruvchilar soni

A_i - i etkazib beruvchiga o'tadigan umumiy bozor ulushi

A_k - k yirik yetkazib beruvchilar tomonidan egalik qilingan bozor ulushi

1-jadval

2018-2023-yillarda «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi korxonalarining umumiy ko'rsatkichlari (Ismoilov, 2019)

Meyor chegarasi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023y- 2012 yilga nisbatan o'zgarish (+; -)
<i>Texnika va texnologiyalarning yangilanish koeffitsienti</i>							
$q \geq 0,1$ dan Oshmagan holda	0,04	0,04	0,05	0,01	0,05	0,08	2
<i>Texnika va texnologiyalarning eskirganlik koeffitsienti</i>							
$q \geq 0,4$ dan oshmagan holda	0,29	0,32	0,31	0,35	0,25	0,59	2,03
<i>Mahsulotlarning raqobatbardoshlik koeffitsienti</i>							
$q \geq 0,55$ dan oshmagan holda	0,85	0,83	0,85	0,86	0,45	0,46	0,58
<i>Innovatsiyalarning rivojlanish koeffitsienti</i>							
$q \geq 0,10$ dan oshmagan holda	0,4	0,4	0,3	0,3	0,3	0,5	1,25
<i>Texnik va texnologik resurslar bilan taminlanganlik</i>							
$q \leq 0,25$	1,76	1,04	0,92	2,76	0,25	0,49	0,28

Bunda keng tarqalgan korrelyatsion-regression tahlil metodikasini qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu tahlil natijasida xulosalar shakillantiriladi, ulardan bir qismi tadqiqot

mantig'iga ko'ra taklif etilayotgan topologiya kontekstida aks etadi va tegishli ravishda izohlanadi.

Amalga oshirilgan tahlil bir qator aniq xulosalar, yaqin istiqbolda ishlab chiqarish xajimlarini ko'paytirish, bozorda egallagan o'rnini mustaxkamlash, eksport saloxiyatini oshirish kabi imkoniyatlar mavjudligini asoslab beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda "GSP+" tizimidan foydalangan holda imtiyozlarni samarali qo'llash uchun keng qamrovli rejalar ishlab chiqilgan. To'qimachilik va yengil sanoatning global ishlab chiqarishdagi yetakchi mamlakatlar tahlil qilinib, eksport va import qilinadigan mahsulotlarning turlari o'rganildi. Yuqori rivojlangan mamlakatlarda yengil sanoat mahsulotlarining innovatsion texnologiyalar, sifatli dizayn va moda mahsulotlariga e'tibori oshib borayotgani aniqlangan. Shuningdek, to'qimachilik korxonalarini innovatsion investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan strategiya ishlab chiqilib, bu orqali sanoatning innovatsion samaradorligini baholash usullari belgilandi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Ismoilov A. S., (2019). To'qimachilik sanoatida innovatsiyalarni boshqarish. Toshkent.

Isroilov A. K., (2022). Resurslarni boshqarish va innovatsion faoliyat. Farg'ona,

Karimov I. M., (2022). To'qimachilik sanoatida raqamli transformatsiya. Toshkent.

Mahmudov Sh. A., (2020) To'qimachilik sanoatidagi innovatsiyalar. Toshkent.

World Bank (2022). World Bank Group - International Development, Poverty, & Sustainability. [online] World Bank. Available at: <https://www.worldbank.org>.

Zaynabova N. A., (2021). Texnologik innovatsiyalar va samaradorlik. Buxoro.